

“Kelajak soati” darsining 1-4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

31-mavzu: “Milliy o‘zlik”

Annotatsiya: Ushbu dars ishlanmasi umumta’lim maktablarining 1-4-sinflari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash, o‘z xalqiga bo‘lgan mehr va hurmatni shakllantirishga qaratilgan. Dars davomida o‘quvchilarda Vatanga sadoqat, ajdodlarga hurmat, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari rivojlantiriladi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda milliy o‘zlik tushunchasining mohiyatini yosh xususiyatlariga mos holda shakllantirish hamda uning tarkibiy qismlari (til, urf-odat, qadriyat va an’analar) haqida dastlabki ilmiy tasavvurlarni hosil qilish.

2. 1-4-sinf o‘quvchilarida milliy madaniyat va merosga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirish, ularni kundalik hayot misollarida anglash va izohlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

3. O‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish orqali milliy qadriyatlarni hurmat qilish, ularni saqlash va davom ettirish zarurati haqida mantiqiy fikrlashga yo‘naltirish.

4. Milliy o‘zlikni anglash asosida o‘quvchilarda vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati va milliy g‘urur tuyg‘ularini ilmiy-pedagogik yondashuv asosida shakllantirish.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

Aqliy va tushunchaviy:

Milliy o‘zlik – bu shaxsning o‘z millatiga mansubligini anglashidir. U til, urf-odat, an’ana, qadriyat va tarixiy xotira kabi tarkibiy qismlardan iborat. O‘quvchilar ushbu tushunchani sodda misollar (ona tili, milliy bayramlar, kiyimlar) orqali anglay boshlaydilar.

Milliy o‘zlik tushunchasi “Vatan”, “madaniyat”, “qadriyat”, “til” kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq ekani ko‘rsatiladi. O‘quvchilar bu tushunchalar o‘rtasidagi aloqani anglab, milliy o‘zlik keng va ko‘p qirrali tushuncha ekanligini tushunib yetadilar.

Hissiy va qadriy:

Vatanga muhabbat hissi – o‘quvchilarda o‘z yurtiga mehr, sadoqat va uni qadrlash tuyg‘ularini shakllantirish;

Vatanini sevish orqali milliy o‘zligini chuqurroq anglash;

Milliy g‘urur va iftixor – o‘z xalqining tarixi, urf-odatlar va yutuqlari bilan faxrlanish, ularga hurmat bilan qarash va ularni asrab-avaylashga intilish;

Qadriyatlarga hurmat va sadoqat – milliy an’analar, urf-odatlar va ma’naviy merosni qadrlash, ularga rioya qilish hamda ularni kelajak avlodga yetkazish zarurligini his etish.

Amaliy ko‘nikmalar:

Milliy qadriyatlarni ifodalash ko‘nikmasi – milliy bayramlar, urf-odatlar va an’analar haqida sodda tarzda og‘zaki va yozma fikr bildira olish, misollar keltira olish.

Madaniy xulq-atvorni namoyon etish ko‘nikmasi – kundalik hayotda kattalarga hurmat ko‘rsatish, milliy odob-axloq qoidalariga amal qilish va ijobiy xulqni amalda qo‘llash.

Ijtimoiy-pedagogik:

Mazkur mavzu 1-4-sinf o‘quvchilarining jamiyatga moslashuvi jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy o‘zlikni anglash bolalarda ijtimoiy identifikatsiya, ya’ni o‘zini muayyan millat va jamiyat a’zosi sifatida his etishning dastlabki bosqichini shakllantiradi.

Ijtimoiy jihatdan, mavzu o‘quvchilarda jamiyatda qabul qilingan me’yorlar, milliy urf-odatlar va an’analariga hurmat ruhini tarbiyalaydi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi sinfga milliy matolardan tikilgan libosda kirib keladi (yoki libosida milliylikka urg'u berilgan bo'lishi kerak).

O'qituvchi: Bolajonlar, bilasizlarmi, dunyoda juda ko'p xalqlar bor. Har bir xalqni boshqalardan ajratib turadigan o'ziga xos belgisi bo'ladi. Masalan, yaponlar intizomi va mehnatsevarligi bilan mashhur, fransuzlar didi va madaniyati bilan, koreyslar texnologiyalari bilan.

O'zbekistonliklar nimasi bilan mashhur?

2-3 boladan javob olinadi.

O'qituvchi: Biz mehmondo'stligimiz, kattalarga hurmatimiz, mehnatkashligimiz va tinchliksevarligimiz bilan mashhurimiz. Bularning barchasi – bizni boshqalardan ajratib turadigan jihatlardir.

Agar biz shu narsalarni bilmasak-chi? Bizni boshqalardan ajratib turadigan urf-odatlarimiz va tariximizni, o'zbek tilini bilmasak nima bo'ladi? Biz boshqalarga o'zimizni qanday tanishtiramiz?

Demak, har bir inson o'z xalqining kimligini, nimasi bilan ajralib turishini bilishi kerak.

Bizning boshqalardan farqlarimiz, o'zimizga xosligimizni anglashimiz “milliy o'zlik” deyiladi. Ya'ni biz kimligimizni, ota-bobolarimiz kimligini, bugungi kunga yetib kelguncha qanday yo'llarni bosib o'tganimizni bilishimiz – o'zimizni bilishimiz “o'zlik” yoki “milliy o'zlik” deyiladi.

*O'qituvchi doskaga yozadi: **MILLIY O'ZLIK***

Demak, bugun biz quyidagi muhim savollarga javob topamiz:

Biz kimmiz? Bizni boshqalardan nima ajratib turadi? Nega o'zligimizni bilishimiz kerak?

Interaktiv: “Mening kichik belgim”

O'qituvchi: Bolajonlar, oilangizda o'zingizga tanish bo'lgan biror odatni eslang va ayting.

Masalan, uyingizga mehmon kelsa nima qilasiz? Bayramlarda doim qanday taom qilinadi? Xursandchiliklarni qanday nishonlaysiz?

Bolalar javob berishadi.

O'qituvchi: Qaranglar, hammangiz turlicha odatlarni aytdingiz. Lekin shu odatlarning tagida bitta umumiy jihat bor: bularning barchasini yaxshilik, hurmat, mehr birlashtirib turadi. Demak, har birimizning oilamizda o'ziga xos odatlar bor, lekin ularning ildizi umumiy.

Mana shu umumiylik birgalikda milliy o'zlik deyiladi.

Bu o'zlik bundan ming yillar oldin ham bo'lgan. Bizga ota-onalarimiz aytib bergan milliy ertaklar, ota-bobolarimiz ijod qilgan dostonlardagi qahramonlarda ham shu umumiy jihatlarimiz ko'rinadi. Hozir sizlarga qadimiy ertaklarimiz va

dostonlarimizdagi qahramonlar jonlantirilgan videoni qo‘yib beraman. E’tibor beringlar, ular bugungi kunga kelib qolsalar, ayrim o‘quvchilarni ko‘rib nima degan bo‘lar edilar.

Vizual kontent

Xalq dostonlari qahramonlari bizning zamonimizda

https://youtu.be/IWaIAU_NBX4

O‘qituvchi: Mana, aziz bolajonlar, videoda ko‘rganingizdek, dostonlarning qahramonlari orqali biz o‘z xalqimizning o‘ziga xos jihatlari, odatlari, maqsadlari, orzularini ko‘ramiz. Shu bilan birga bugungi kunimizdagi ayrim xatolarga ularning ko‘zi bilan qaradik. Demak, xulosa qilib, boshqa bu xatolarni takrorlamasligimiz kerak.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

“Milliy o‘zlik – bu bizning kimligimiz”

O‘qituvchi: Bolajonlar, har biringizning ismingiz bor-a?

Sizni shu ism bilan chaqirishsa, darrov javob berasiz. Chunki bu sizning kimligingizni bildiradi. Ammo insonning kimligini faqat ismi emas, uning qaysi xalq bolasi ekani ham ko‘rsatib beradi.

Masalan, biz “men o‘zbekistonlikman” deymiz. Bu shunchaki gap emas. Bu bizning kimligimizni bildiradi. Ya’ni biz qayerdanmiz, qanday xalqqa mansubmiz, qanday qadriyatlar bilan yashaymiz – bularning barchasi shu so‘z ichida bor.

Tasavvur qiling, agar inson o‘z ismini unutib qo‘ysa, u o‘zini noqulay his qiladi. Chunki u o‘zini tanimay qolgandek bo‘ladi. Xuddi shunday, agar inson o‘z millatini, o‘ziga tegishli qadriyatlarni bilmasa, u o‘zini to‘liq anglay olmaydi.

Shuning uchun milliy o‘zlik bizni o‘zimizga tanitadigan tushunchadir.

Agar kimdir sizdan “Sen kimsan?” deb so‘rasa, siz faqat ismingizni aytasizmi yoki yana nimanidir qo‘shasizmi?

Bolalarning javobi.

O‘qituvchi: Albatta, o‘z ismingiz, ota-onangizning ismini aytib “falanchining o‘g‘li yoki qiziman, falon mahallada turaman” deysiz, ya’ni oila a’zolaringiz va yashaydigan joyingiz – makoningiz, vatanningizni aytasiz. Demak, bularning bari sizning “o‘zligingiz”dir.

Demak, biz kimligimizni to‘liq aytish uchun faqat ism emas, vatanimizni, otabobolarimizni ham bilishimiz kerak.

Interaktiv daqiqa: “Ismingizning ma’nosi nima?”

O‘qituvchi: Shu joyda kichkina o‘yin o‘ynaymiz. Bu o‘yinning nomi “Ismim nimani anglatadi?”

Har biringiz o‘z ismingizni ichingizda ayting va o‘ylab ko‘ring: bu ism sizga qayerdan kelgan? Uni sizga kim qo‘ygan?

(Pauza).

Endi kim xohlasa, aytib beradi: ismingizni kim qo‘ygan va nima uchun aynan shu ism tanlangan?

2-3 nafar o‘quvchi javob beradi.

O‘qituvchi: Juda yaxshi. Endi e‘tibor beringlar. Sizlarning ismlaringiz shunchaki tanlanmagan. Ular ota-onangiz, bobongiz, buvingiz tomonidan mehr bilan qo‘yilgan. Ba‘zilarining ismi ajdodlari nomidan olingan, ba‘zilariga yaxshi ma‘no tilab qo‘yilgan.

Endi o‘ylab ko‘raylik: agar siz faqat ismingizni bilsangiz-u, lekin qaysi millatga mansub ekaningizni bilmasangiz, o‘zingizni to‘liq tanigan bo‘lasizmi?

O‘quvchilar: Yo‘q.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Ism – bu sizning shaxsiy belgingiz. Millat esa – sizning katta oilangiz, ya‘ni siz mansub bo‘lgan xalqdir. Shuning uchun inson o‘z ismini ham, xalqini ham bilsa, o‘zini to‘liq anglaydi. Mana shu anglash milliy o‘zlik deyiladi.

Milliy o‘zlik – bu kundalik hayotimiz

O‘qituvchi: Bolajonlar, endi o‘ylab ko‘raylik. Milliy o‘zlik faqat katta-katta gaplarda, kitoblarda yoki tarixda bo‘ladimi? Yo‘q. U har kuni biz bilan birga yashaydi.

Siz ertalab maktabga kelganingizda “Assalomu alaykum” deb salom berasiz. Oddiy gapdek tuyuladi, lekin bu – bizning odatimiz, madaniyatimizdir. Siz kattalarga hurmat bilan muomala qilasiz, mehmon kelsa e‘tibor berasiz, ota-onangizga yordam berasiz. Bularning barchasi kundalik hayotingizda qilayotgan ishlaringiz bo‘lib, ular ham milliy o‘zligimizning belgilaridir.

Demak, milliy o‘zlik – bu faqat tarix emas, bu bizning har kuni qiladigan odatlarimizda ko‘rinadi.

Masalan, kimdir avtobusda yoki metroda yoshi katta insonni ko‘rib qolsa, unga joy beradi. Kimdir nonni yerga tashlamaydi, e‘zozlab ko‘ziga surtadi. Kimdir uyiga mehmon kelsa, iliq kutib oladi.

Bularning barchasi oddiy harakatlar, lekin ular orqali biz qanday tarbiya olganimiz, qanday qadriyatlarga ega ekanimiz bilinadi.

Qani, aytinglar-chi, siz bugun maktabga kelguningizcha qanday odatni bajardingiz?

O‘quvchilar: Salom berdim, ota-onam bilan xayrlashdim, kattalarga hurmat qildim...

O‘qituvchi: Barakalla. Demak, sizlar milliy o‘zlikni namoyon qilishni bilasizlar. Faqat bugun uni tushunib ham oldingiz.

Bolajonlar, darsimiz boshida biz dostonlar qahramonlari orqali o'zligimizni tanigan edik. Yana san'at turlaridan multfilmlar, filmlar, dublyajda ham bizning milliy o'zligimiz ko'rinadi. Hozir milliy, o'zbekona multfilmlar olib o'ziga xos qahramonlarni yaratayotgan rejissyor bilan suhbatga quloq tutamiz. U personajlarning o'zligini qanday belgilar orqali ko'rsatishini aytib beradi.

Vizual kontent

Multfilmlar qanday ishlab chiqariladi? – Abdulatif Haydarov

<https://youtu.be/Zzo5ZdMOPUI>

O'qituvchi: O'zingiz guvohi bo'lganingizdek, milliy multfilmlardagi qahramonlarimiz o'zimizga juda o'xshaydi. Shuning uchun biz ularni yaxshi ko'ramiz. Mana shu milliy o'zlikdir.

Milliy o'zlik – bu qadriyatlar

O'qituvchi: Bolajonlar, endi yana bir muhim narsani tushunib olamiz. Milliy o'zlik faqat tashqi narsalarda emas, faqat kiyimda yoki taomdagina ko'rinish bilan cheklanib qolmaydi. Eng muhimi – u insonning xulqida ko'rinadi.

Inson qanday gapiradi, qanday muomala qiladi, boshqalarga qanday munosabatda bo'ladi – mana shu uning asl qiyofasini ko'rsatadi.

Masalan, siz kattalarga hurmat bilan gapirsangiz, kichiklarga mehribon bo'lsangiz, birovga yordam bersangiz – bular sizning tarbiyangizni ko'rsatadi. Tarbiyali, odobli bola bo'lish esa milliy qadriyatlarimizning eng muhim qismidir. Shuning uchun xalqimizda “Bola aziz, odobi undan aziz” degan maqol bor.

Ba'zan bir insonning juda chiroyli kiyinishini ko'rishimiz mumkin. Lekin agar qo'pol gapirsa yoki boshqalarga hurmatsizlik qilsa, o'zi haqida yaxshi taassurot qoldirmaydi. Aksincha, oddiygina kiyingan, lekin hurmatli va odobli bola hammaga yoqadi.

Demak, milliy o'zlikning eng muhim qismi – bu yaxshi xulq va odobdir. Aynan shu orqali inson o'zini ham, o'zi mansub xalqni ham namoyon qiladi.

Qani, aytinglar-chi, yaxshi xulqli bola qanday bo'ladi?

O'quvchilar: Mehribon bo'ladi, boshqalarga yordam beradi...

O'qituvchi: To'g'ri.

Hozir sizlarga milliy qadriyatlarimizdan biri bo'lgan kulolchiligimiz haqida videoreportajni qo'yib beraman. Kulolchilik nima uchun bizning milliy o'zligimizning bir qismi hisoblanadi, bilasizlarmi? Chunki bizning kulolchilik o'ziga xosdir. Bizning kulolchilik mahsulotlari o'zining yorqin ranglari, dizayni bilan ajralib turadi.

Marhamat, ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

Rishtonlik mashhur kulol xonadonidamiz

<https://youtu.be/i7fKe3B42Lw>

Milliy o'zlikni bilish nima uchun kerak?

O'qituvchi: Bolajonlar, endi eng muhim savolga kelamiz. Nega milliy o'zlikni bilishimiz kerak?



Mana, daraxtni olaylik. Daraxt baland o'sishi uchun uning ildizi mustahkam bo'lishi kerak. Agar ildizi bo'lmasa yoki kuchsiz bo'lsa, daraxt uzoqqa bormaydi.

Inson ham xuddi shunday. Uning "ildizi" – bu uning milliy o'zligi.

Agar bola o'zini, qaysi xalqqa mansubligini, qanday qadriyatlar bilan yashashini bilsa, o'ziga ishonch bilan katta bo'ladi. Kelajakda u to'g'ri qarorlar qabul qiladi, boshqalarga hurmat bilan qaraydi va hayotda o'z o'rnini yo'qotib qo'ymaydi.

Lekin agar inson o'zligini bilmasa, boshqalarga ko'r-ko'rona ergashib ketadi. O'z ona tilini unutadi, boshqalarda gapira boshlaydi. O'zining emas, boshqalarning manfaati uchun ishlaydi va buni hatto anglamaydi ham. Chunki uning ichida mustahkam tayanch bo'lmaydi.

Shuning uchun milliy o'zlikni bilish – bu o'zini topish degani.

Qani, aytinglar-chi, sizlar qanday bola bo'lishni xohlaysiz: o'ziga ishonadiganmi yoki boshqalarga ergashib ketadiganmi?

O'quvchilar: O'ziga ishonadigan!

O'qituvchi: Barakalla. Demak, buning uchun siz o'zligingizni bilishingiz va unga amal qilishingiz kerak.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O'qituvchi: Aziz bolajonlar, bugun biz juda muhim narsani bilib oldik. Insonning faqat ismi emas, balki uning vatani, millati, qadriyatlari va xulqi ham uning kimligini belgilaydi. Milliy o'zlik – bu bizning kimligimiz, u bizning kundalik hayotimizda, odatlarimizda va eng muhimi, xulqimizda namoyon bo'ladi.

Milliy o'zlikni bilgan bola o'ziga ishonadi, boshqalarga hurmat bilan qaraydi va to'g'ri yo'lni tanlay oladi.

Endi darsimizni kichkina, lekin qiziqarli mashq bilan yakunlaymiz.

Hozir sizlarning milliy cholg'u asboblari haqidagi bilimlaringizni sinab ko'ramiz. Qani, ovozini eshitib cholg'u asbobini topa olarmikansizlar?

Vizual kontent

Milliy kuylar boshqotirmasi

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/531

O'qituvchi: Mazza qilib raqs tushdik. Endi joylarimizga o'tirib olamiz va uyga vazifani yaxshilab eshitib olamiz.

Bugun uyga borgach, ota-onangizdan yoki buvingiz-bobongizdan bitta savol so'rang: "Bizning oilamizda eng muhim odat qaysi?"


Ularning javobini eslab qoling va keyingi darsda bizga aytib berasiz.

Shuningdek, "O'zlik daraxti" suratini bo'yab kelasizlar.

Unutmanglar, o'zligini bilgan bola – kuchli bola.

Keyingi darsda ko'rishguncha, xayr bolajonlar!

O'qituvchi bolalarga quyidagi suratni uyda bo'yab kelish uchun qog'ozga chiqarib tarqatadi.



Inson

o'zlik